

## **RESPUBLIKAMIZ BALIQCHILIGI RIVOJLANISHINI BUGUNGI HOLATI**

**Muqimov Muhammad Karim Adhamovich,**

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

E-mail: [muqimovmuhammadkarim7@gmail.com](mailto:muqimovmuhammadkarim7@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada respublikamiz baliqchiligining, hususan, Farg‘ona vodiysi baliqchiligining bugungi holati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** baliqchilik, ixtiofauna, intensiv baliqchilik, akvakultura, Farg‘ona vodiysi.

### **THE CURRENT STATE OF THE FISHERIES DEVELOPMENT OF OUR REPUBLIC**

**Abstract:** this article talks about the current state of the fisheries of our republic, especially the fisheries of the Fergana Valley.

**Key words:** fishery, ichthyofauna, intensive fishery, aquaculture, Ferghana Valley.

Respublikamiz hududida baliq mahsulotlarini yetishtirish hajmini ko‘paytirish, mavjud suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish uchun tabiiy suv havzalarida akvakulturani rivojlantirish, ushbu suv havzalari yaqinida intensiv baliqchilik ko‘llarini tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunga respublikamizdagi mavjud qonunchilik tizimi ham katta imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2018 yildagi PQ-4005-sonli “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga binoan, baliqchilik xo‘jaliklariga biriktirilgan suv havza maydonlaridan ilmiy yondashuv asosida samarali foydalanish, ularning meliorativ holatini yaxshilash, shuningdek, resurs tejamkor texnologiyalar va innovatsiyalarni

keng ko‘lamda joriy qilish ishlariga yetarlicha e’tibor berish, sun’iy suv havzalari hosildorligini oshirish uchun baliqchilik xo‘jaliklarining mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish, shuningdek, mineral o‘g‘itni boshqa muqobil o‘g‘itlar bilan almashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qancha chora tadbirlar rejalarini ishlab chiqilib, amaliyatga joriy etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berib o‘tilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.08.2020 yildagi PQ-4816-sonli “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Respublikada baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash, baliqchilik va baliq ovlash xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda intensiv texnologiyalarning keng joriy etilishini ta’minlash maqsadida bir qancha qaror va topshiriqlar tegishli rahbarlarga yuklatilgan[2].

Yuqorida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga asosan baliqchilik soxasi tubdan isloh qilina boshlandi.

	<b>2019 - yil</b>	<b>2020 - yil</b>	<b>2021 - yil</b>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>24,8</b>	<b>25,8</b>	<b>26,0</b>
<b>Andijon</b>	<b>42,4</b>	<b>40,9</b>	<b>42,9</b>
<b>Buxoro</b>	<b>43,0</b>	<b>45,1</b>	<b>46,4</b>
<b>Jizzax</b>	<b>50,7</b>	<b>52,8</b>	<b>53,7</b>
<b>Qashqadaryo</b>	<b>40,9</b>	<b>42,0</b>	<b>40,9</b>
<b>Navoiy</b>	<b>15,7</b>	<b>14,0</b>	<b>15,3</b>
<b>Namangan</b>	<b>42,4</b>	<b>41,0</b>	<b>40,4</b>
<b>Samarqand</b>	<b>44,4</b>	<b>44,6</b>	<b>44,4</b>
<b>Surxondaryo</b>	<b>49,6</b>	<b>48,2</b>	<b>48,6</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>40,2</b>	<b>39,3</b>	<b>39,0</b>
<b>Toshkent</b>	<b>23,2</b>	<b>23,2</b>	<b>23,0</b>
<b>Farg‘ona</b>	<b>34,9</b>	<b>34,8</b>	<b>36,3</b>
<b>Xorazm</b>	<b>45,1</b>	<b>46,5</b>	<b>46,1</b>

Xususan, [O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi](#) ma’lumotlariga qaraganda 2019-2021 yillarda yalpi hududiy mahsulot(YaHM)ning tarmoqlar bo‘yicha tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi quyidagicha o‘zgarishga erishdi(YaQQga nisbatan %da)[3].

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra hududlarda o'sish kuzatilishiga qaramay, ba'zi viloyatlarda pasayish kuzatilgan yoki o'zgarishsiz qolgan. 2021 yilning yanvar-iyun oylarida respublikamizda 37,2 ming tonna baliq ovlangan bo'lib, hududlar kesimida quyidagicha ko'rsatgichni qayd etgan: Qoraqalpog'iston Respublikasi – 3648 tonna, Andijon – 3544 tonna, Buxoro – 2002 tonna, Jizzax – 3400 tonna, Qashqadaryo – 1044 tonna, Navoiy – 4167 tonna, Namangan – 1040 tonna, Samarqand – 1732 tonna, Surxondaryo – 1248 tonna, Sirdaryo – 2648 tonna, Toshkent – 3654 tonna, Farg'ona – 2838 tonna, Xorazm – 6226 tonna.

Ko'rinish turibdiki baliq ovlash va yetishtirish bo'yicha yetakchi o'rinni Xorazm viloyati egallagan. Umumiy baliq ovlash hajmining 20 % ga yaqin qismi Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi (Farg'ona viloyati 8 %).

Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishda ijarachi korxonalar tomonidan kichik va o'rta hajmdagi ko'llarda baliq yetishtirishning yangi shakllarini, ya'ni yaylov akvakulturasini amalga oshirishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bunda ilmiy tavsiyalar asosida tabiiy suv havzalarini baliq xo'jaligi sifatida tashkil qilish maqsadida baliqchilik melioratsiyasi ishlarini samarali amalga oshirish lozim. Shuningdek, hozirgi sharoitda suv havzalaridan ratsional foydalanish uchun ularning tabiiy ozuqa bazasini shakllantirish va rivojlantirish iqtisodiy jihatdan o'z samarasini beradi.

Baliqchilik soxasini yanada rivojlantirish, baliq maxsulotlarini xajmini orttirish uchun mavjud resurslardan oqilona va yuqodi darajada foydalanishdan tashqari, tabiiy va sun'iy suv havzalarining holati, boqiladigan baliqlar uchun ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Boqiladigan baliqlar uchun asosiy omillar suv muhitining normal holari, tabiiy va qo'shimcha ozuqalar yetarli bo'lishi bilan bir qatorda ulaning ozuqasiga doimiy ravishda sherik bo'luvchi ovlanmaydigan invaziv baliq turlarini ham hisobga olish lozim.

---

Farg'ona vodiysi hududida ov ahamiyatiga ega bo'lgan baliqlar ozuqasiga sherik bo'luvchi, xashaki baliqlar o'nlab turlarni tashkil etadi. Masalan, Koreya qirraqorini Hemiculter leucisculus (Basilewsky, 1855), Ko'zli taxirbaliq Rhodeus ocellatus (Kner, 1866), Uchlab Opsariichthys cf. bidens (Günther, 1873), Amur chebakchasi

Pseudorasbora parva (Temminck et Schlegel, 1846), Xitoy qumbalig‘i Abbottina rivularis (Basilewsky, 1855), Turkiston qumbalig‘i Gobio lepidolaemus (Kessler, 1872), Kulrang eshvoyi Triplophysa dorsalis (Kessler, 1872), Dog‘li eshvoyi Triplophysa strauchi (Kessler, 1974), Xolbruk gambuziyasi Gambusia holbrooki (Girard, 1859) kabi turlar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi baliq turlarini biologiyasi, populyatsilarining holati, boshqa ov ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq turlarining populyatsiyasiga ta’siri va morfometrik ko‘rsatkichlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari suv havzalarining hozirgi holati ozuqaviy resurslarga boyligi, gidrokimyoviy tarkibi, hidrofizik ko‘rsatkichlarini tadqiq etish ham muximdir.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlarni o‘rganish va bu hususiyatlardan chiqarilgan xulosalar asosida baliqchilikda ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun muxim tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2018 yildagi PQ-4005-sonli “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.08.2020 yildagi PQ-4816-sonli “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

3. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13982-yaimning-tarmoqlar-bo-yicha-tarkibida-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligining-ulushi-qanday>

4. Муқимов Мухаммад Карим Адхамович, Мирзахалилов Мираббос Мирзакаримович, Назаров Мухаммадрасул Шаропович КАЧЕСТВЕННЫЙ И КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ НЕКУЛЬТИВИРУЕМЫХ РЫБ В ВЫРОСТНЫХ ПРУДАХ РЫБХОЗА «НАМАНГАН БАЛЫК» // Academic research in educational sciences. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kachestvennyy-i-kolichestvennyy-analiz->

nekultiviruemuh-ryb-v-vyrostnyh-prudah-rybhoza-namangan-balyk (дата обращения: 19.09.2022).

5. Муқимов Мухаммад Карим Адхамович, Мирзахалилов Мираббос Мирзакарим Ўғли, Назаров Мухаммадрасул Шаропович, Шарипова Барно Салимовна СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА МОРФОБИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ АМУРСКОГО ЧЕБАЧКА (PSEUDORASBORA PARVA) КАК ИНВАЗИВНОГО ВИДА // SAI. 2022. №D2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnaya-otsenka-morfobiologicheskikh-pokazateley-amurskogo-chebachka-pseudorasbora-parva-kak-invazivnogo-vida> (дата обращения: 19.09.2022).

6. Mukimov M. K. A., Mirzakhalilov M. M., Nazarov M. S. Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – T. 3. – №. 05. – C. 140-047.

7. Mirzahalilov M. M. et al. HYDROCHEMICAL INDEXES AND PHYTOPLANKTON COMPOSITION OF DIFFERENT TYPES OF WATER BODIES IN THE FERGANA VALLEY //O ‘ZBEKISTON BIOLOGIYA JURNALI. – 2006. – C. 36.